TDIU
1931
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№2
MAXSUS SON

Google Scholar · OPEN ACCESS · ULRICHSWEB GLOBAL SERIALS DIRECTORY · OpenAIRE · ROAD · НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА LIBRARY.RU · Academic Resource Index ResearchBib · ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE · CYBERLENINKA · BASE · INDEX COPERNICUS INTERNATIONAL · Crossref

BAKALAVR TALABALARINING MAQOLALARI TO‘PLAMI



ISSN: 2992-8982
https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/
2026

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Karimov Norboy G‘aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr.
2026-yil, mart-aprel.

Tahrir hay’ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, “Nobel” mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a’zosi, Turkiya – O‘zbekiston do‘stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G‘afforovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug‘aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko‘nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo‘ja o‘g‘li, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O‘z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari
Ochilov Farkhod, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig‘i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o‘g‘li, texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o‘g‘li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o‘g‘li, TDIU katta o‘qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow))
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:
Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po‘latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
G‘afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o‘qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja’sur Artiqboy o‘g‘li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:
Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Khusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: “Ma’rifat-print-media” MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zR Tabiat resurslari vazirligi, O‘zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:
““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali
O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

MUNDARIJA

XODIMLARNING EMOTSIONAL INTELLEKTI, KORPORATIV MADANIYAT VA MEHNAT UNUMDORLIGI O‘RTASIDAGI UZVIY BOG‘LIQLIKNI CHUQUR TAHLIL QILISH 8
Shoabdurashidova Mahina Jaxongir qizi, Ibroximov Ilxomjon Shavkatjon o‘g‘li

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ESG TAMOYILLARI INTEGRATSIYASI ORQALI KORXONALAR BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHINI TA’MINLASH 15
Jolg‘ashova Nozima Mansurovna, T.D. Mamatkulov

АНАЛИЗ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ РЕГИОНАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН 21
Давлетова Адиля Азатбаевна, Сапаев Дилшод Хушнудович

XIZMAT KO‘RSATISH KORXONALARI FAOLIYATI RIVOJLANISHI IQTISODIY O‘SISHNING OMILI 27
Jumaniyazov Rashid Azamatovich, Ismailov Baxit Abdireymovich

“LOKOMOTIV” MEHMONXONASI ZAMONAVIY SHAROITLARDA XUSUSIYATLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI 31
Masharipov O‘rolbek Ozod o‘g‘li, Khodjaeva Nodiraxon Abdurashidovna

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOLIQ TIZIMINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI 36
Boybosinova Shaxlo Meles qizi, Ostonov Muhriddin Bahriddin o‘g‘li

AUDITORLIK TEKSHIRUVI JARAYONIDA AUDITORLIK DALILLARINI TO‘PLASH VA BAHOLASH USLUBIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH 44
Qodirjonov Dilshodjon Qosimjon o‘g‘li, Xolmirzayev Ulug‘bek

BUXGALTERIYA HISOBINI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA MOLIYAVIY NAZORAT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH 49
Igamberdieva Kunduz Ergashevna, O‘razova Marjona Valiboy qizi

ВЛИЯНИЕ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ НА ЭКОНОМИЧЕСКИЙ РОСТ 55
Камилова Наргиза Абдукахоровна, Давронов Дониёрбек Заррухович

ANALYSIS OF OUR COUNTRY’S POSSIBILITIES FOR ACCESS TO THE SEA THROUGH THE KABUL CORRIDOR 61
Khuzhamov Babur, Khudoyberdiev Diyorbek, Jumaboev Bekzod

O‘ZBEKISTONDA ESK.UZ TIZIMINI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA ISTIQBOLLARI 69
M.J.Nurmetova, Baxtyorov Ahadbek Doniyor o‘g‘li

O‘ZBEKISTONDA KRIPTOVALYUTALARNING JORIY FOYDALANISHINI TAHLIL QILISH 77
Qobilova N. Q., Normurodov X. E.

MOLIYAVIY RISKLAR VA ULARNI XALQARO MIQYOSDA BOSHQARISH USULLARI 83
Toirov Bobur G‘ofir o‘g‘li, F.U.Umarov

SUN’IY INTELEKTNING INSON ONGIGA VA DAVLAT KORXONALARINI RAQAMLASHTIRISHGA TA’SIRI 90
Uskanboyev Temurbek Ismoil o‘g‘li, F.U.Umarov

IQTISODIYOT TARMOQLARI YUKLARINI TASHISHNI TASHKIL ETISH 97
Ne’matov Husniddin Alijon o‘g‘li, Maxmudov Abrorxon Axmadxonovich

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

TARIXIY OBIDALAR ASOSIDA MADANIY TURIZMNI RIVOJLANTIRISH 102
Boltaboyeva Maqsuda Matjonboy qizi, Maxmudov Abrorxon Axmadxonovich

TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA INTERNET VA IJTIMOIY TARMOQLARNING ROLI 105
Abdumutalova Shahzoda Yodgorjon qizi, Maxmudov Abrorxon Axmadxonovich

ФИНАНСИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТОВ ЗА СЧЕТ ИНВЕСТИЦИОННЫХ И ПАЕВЫХ ФОНДОВ 109
Дилшод Насиров, Сухроб Хайитов, Самира Каримова

КОМПЕТЕНТНОСТЬ КАК УСЛОВИЕ ОСМЫСЛЕННОГО РАЗГОВОРА ОБ ЭКОНОМИКЕ 115
Зайналов Ж. Р., Абдумажидов Ш. Ш.

ГОСУДАРСТВЕННЫЕ РАСХОДЫ КАК ПОКАЗАТЕЛЬ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТРАНЫ 119
Юсупов Азаматжон Икромович, Ишонкулова Феруза Асатовна

ТЕОРЕТИКО-МЕТОДИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПОВЫШЕНИЯ ИННОВАЦИОННО-ИНВЕСТИЦИОННОЙ АКТИВНОСТИ В ПРЕДПРИЯТИЯХ СФЕРЫ УСЛУГ 124
Насиров Дилшод Фархадович, Казакбаева Динара, Максетбаева Гулпаршин

ВЕЛИКОЕ УСКОРЕНИЕ: КОНВЕРГЕНЦИЯ ИИ И БЛОКЧЕЙНА КАК НОВАЯ ИНВЕСТИЦИОННАЯ ПАРАДИГМА 2026 ГОДА 129
Насиров Дилшод Фархадович, Синько Юлианна Викторовна, Шамшетова Жамила Муса кызы

KORXONANING IQTISODIY SALOHIYATINI BAHOLASH KO‘RSATKICHLARI 134
Turg‘unpulatov Ziyovuddin Alijon o‘g‘li, Odilov Xamidillo Mahmudjon o‘g‘li

РОЛЬ БЛОКЧЕЙН-ТЕХНОЛОГИЙ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ПРОЗРАЧНОСТИ БИЗНЕС-ПРОЦЕССОВ 139
Дилмуродов Журабек Улугбек угли, Белалова Гузаль Анваровна

OPERATSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH 144
Nasrullayev Omonulloxon Nodirjon o‘g‘li, X.M. Odilov

HAVO IFLOSLANISHI VA YASHIL TABIAT YOMONLASHUVI NATIJASIDA SOG‘LIQNI SAQLASH XARAJATLARINING OSHISHI: IQTISODIY TAHLILI 150
Sotvoldiyeva Rayxona Abdurasul qizi, Odilov Xamidillo

TIJORAT BANKLARIDA PUL MABLAG‘LARI HARAKATI VA LIKVIDLIK TAHLILI 155
Foziljonova Niholaxon Fayoz qizi, X.M.Odilov

NOMINAL VA REAL YAIM VA UNING O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASIDAGI AHAMIYATI 162
Ziyodullayev Dilshod Sherzodovich, Jo‘rayev Toshbolta To‘xtayevich

YASHIL IQTISODIYOT: ZAMONAVIY RIVOJLANISH PARADIGMASI SIFATIDA TAHLILI 167
Yo‘ldashaliyev Muxammadaziz Xabibulla o‘g‘li, Yoqubova Zilola Tura qizi

РОЛЬ БРЕНДИНГА В ИННОВАЦИОННОЙ СИСТЕМЕ МАРКЕТИНГА 172
Насиров Дилшод Фархадович, Файзуллаев Аслиддин Сафар угли, Толибжонов Умеджон Одилович

AMIR TEMURNING IJTIMOIY, IQTISODIY VA SIYOSIY QARASHLARI 176
Lola Xalikova Nazarovna, Mutabar Absamatova Jamshid qizi

ИНТЕГРАЦИЯ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ: ВОЗМОЖНОСТИ И УГРОЗЫ В КОНТЕКСТЕ НОВОЙ РЕГИОНАЛЬНОЙ АРХИТЕКТУРЫ 181
Убайдуллаев Сирожиддин

IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING ROLI 186
Fazilat Esirgapovna Jomonqulova, Nizomov Murod, Madinabonu Temirova Otabek qizi

ПОТРЕБИТЕЛЬСКАЯ КОРЗИНА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В УСЛОВИЯХ «ЗЕЛЁНОЙ» ЭКОНОМИКИ 191
Ишонкулова Феруза Асатовна, Ибрагимова Ширин

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

IQTISODIY TA’LIMOTLAR TARIXI, AHAMIYATI VA ULARNING ZAMONAVIY GLOBAL IQTISODIYOTDAGI TRANSFORMATSIYASI 195
Abdukaxxorova Durdona Ilxomovna, Muhabbat Hakimova Fayziyevna

YANGI O‘ZBEKISTONNING XALQARO MOLIYA INSTITUTLARI BILAN HAMKORLIGI VA UNING RIVOJLANISHI 201
Ataniyazov Jasurbek Xamidovich, Abdullayev Izzatbek Akramxon o‘g‘li

УПРАВЛЕНИЕ КАЧЕСТВОМ И КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТЬЮ В РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН 206
Латипов Ашур Али Рустам угли, Ахтамов Огабек Улугбек угли, Фахритдинов Амриддин Фазлитдинович, Саидмуродов Жонибек Жахонгирович

ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ 212
Латипов Ашур Али Рустам угли, Нарбаев Жандарбек Агабекович, Собирова Мадинабону Санджаровна, Эгамкулов Шохжахон Куниш угли

YASHIL LOGISTIKA LOYIHALARIDA INVESTITSIYA RISKLARINI BAHOLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH 218
Sobirjonova Nodira Rustamjon qizi, Adashaliyev Miraziz Mirzohidjon o‘g‘li

INVESTITSIYALARNING O‘ZBEKISTON IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI ROLI VA BARQAROR O‘SISHGA TA’SIRI 225
Yarboyeva Farida Ulug‘bekovna, Yoqubova Zilola Tura qizi

ДИНАМИКА ВНЕШНЕТОРГОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И ВХОЖДЕНИЕ УЗБЕКИСТАНА В МИРОВОЕ СООБЩЕСТВО 230
Камилова Наргиза Абдукахоровна, Иванян Михаил Михайлович

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AKSIZ SOLIG‘INING FISKAL AHAMIYATI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI 234
Otabek Jalolov, Abdurashidov Abdusamad

YEVROPA YASHIL BITIMI VA UNING O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TA’SIRI 240
Xamitillayeva Jasmina Jaxongir qizi, Ataniyazov Jasurbek Xamidovich

INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA XIZMAT KO‘RSATISH SOHASIDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI: STRATEGIK TAHLIL VA ILMIY-NAZARIY ISTIQBOLLAR 246
Haitqulov Behruz Shuhrat o‘g‘li, Tayirov Ozodbek Ulug‘bek o‘g‘li

XIZMATLAR SOHASIDA IQTISODIY O‘SISH VA BARQARORLIKNI TA’MINLASHDA INNOVATSION VA INSTITUTSIONAL OMILLARNING ROLI 253
Ashurova Jasmina Jo‘ra qizi, Shodmanova Zubayda Ubaydullayevna

BUDJET TASHKILOTLARIDA BUDJET HISOBINING TASHKILIY-USLUBIY JIHATLARI 258
Orzikulova Diyora Xurshedovna, Ibragimov Mansur Mardonovich

MOLIYA TIZIMI VA MOLIYAVIY SIYOSAT 263
Ilhomov Diyorbek Umidjon o‘g‘li, Jumaniyazov Nodirbek Odilbek o‘g‘li

XUSUSIY TADBIRKORLIK VA KICHIK BIZNESNING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH HAMDA QO‘LLAB-QUVVATLASHNING ILMIY-AMALIY JIHATLARI 267
G‘aybullayeva Zilola Raxmatullo qizi, Oxunjonova Kamola Komiljon qizi

МЕХАНИЗМ РАСПРЕДЕЛЕНИЯ ПРИБЫЛИ В КОРПОРАТИВНОМ УПРАВЛЕНИИ 271
Латипов Ашур Али Рустам угли, Журакулов Аббос Жасур угли, Сафарова Сабина Сирожиддиновна, Санакулов Шахзод Мансур угли

BUXGALTERIYA AUDITINING AHAMIYATI VA UNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI 276
Abdukarimov Qamariddin Isroiljon o‘g‘li, Beknazarov Zafarjon Ergachevich

BUXGALTERIYA VA EKOLOGIK HISOBOT (ESG HISOBOTLARI) 281
Abdukarimov Qamariddin Isroiljon o‘g‘li, Abdurashidov Faxriddin Fazliddin o‘g‘li, Beknazarov Zafarjon Ergachevich

O‘ZBEKISTONDA YASHIL BANKING VA BARQAROR MOLIYALASHTIRISHNING DOLZARBLIGI 286
Alimov Umid Xamid o‘g‘li, F.U.Umarov

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

KICHIK BIZNESDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING AHAMIYATI.....293
Abduraxmonov Valijon G‘ofurovich, Yusupova Dilnigor A’zamjon qizi

IMPORTGA QARAMLIKNI KAMAYTIRISH: MAHALLIY ISHLAB CHIQARISHNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY AHAMIYATI.....297
Nortojiyeva Sevinch Raximjonovna, Xashimov Abdukomil Risbekovich

IMPORTGA QARAMLIKNI KAMAYTIRISH: MAHALLIY ISHLAB CHIQARISHNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY AHAMIYATI

Nortojiyeva Sevinch Raximjonovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Iqtisodiyot fakulteti 2-bosqich talabasi
sevinchnortojiyeva31@gmail.com

Ilmiy rahbar:
Xashimov Abdukomil Risbekovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Fizika-matematika fanlari doktori
abdukomilxashimov@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada milliy iqtisodiyotning barqarorligini ta’minlashda import hajmini kamaytirish, mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirishning strategik ahamiyati tadqiq qilinadi. O‘zbekiston Respublikasining import tarkibi o‘rganib chiqildi va ko‘p import qilinadigan sohalar aniqlandi. Davlat tomonidan import o‘rnini bosish va mahalliylashtirish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar o‘rganib chiqilgan. Ichki bozorda import o‘rnini bosuvchi mahsulot ishlab chiqaruvchilarni rag‘batlantirish, klaster tizimlarini joriy qilish, korxonalarni modernizatsiya qilish samaradorligi bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: tashqi savdo aylanmasi, import o‘rnini bosuvchi, mahalliylashtirish, import tarkibi, tayyor mahsulot, klaster, ichki bozor, import tariflari, importni cheklash.

Abstract: This article examines the strategic importance of reducing import volumes and developing local production to ensure the stability of the national economy. The import structure of the Republic of Uzbekistan was studied, and the most heavily imported sectors were identified. Government measures aimed at import substitution and localization were analyzed. Furthermore, practical proposals and recommendations were developed regarding incentives for import-substituting domestic producers, the implementation of cluster systems, and the efficiency of enterprise modernization.

Key words: foreign trade turnover, import-substituting, localization, import structure, finished product, cluster, domestic market, import tariffs, import restriction.

Аннотация: В данной статье исследуется стратегическое значение снижения объёмов импорта и развития местного производства для обеспечения стабильности национальной экономики. Была изучена структура импорта Республики Узбекистан и определены наиболее импортируемые отрасли. Проанализированы меры, принимаемые государством в области импортозамещения и локализации. Разработаны предложения и рекомендации по стимулированию отечественных производителей импортозамещающей продукции, внедрению кластерных систем и повышению эффективности модернизации предприятий.

Ключевые слова: внешнеторговый оборот, импортозамещение, локализация, структура импорта, готовая продукция, кластер, внутренний рынок, импортные тарифы, ограничение импорта.

KIRISH

Global iqtisodiy makonda so‘nggi yillarda ro‘y berayotgan geosiyosiy beqarorlik, proteksionizm siyosati va logistika zanjirlaridagi uzilishlar har bir mamlakat uchun iqtisodiy xavfsizlik masalasining ahamiyatini oshirmoqda. Global integratsiyalashuv sharoitida importga qaramlikni kamaytirish rivojlanayotgan davlatlar uchun valyuta mablag‘larining chetga chiqishini qisqartirish bilan birga, milliy ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga ham xizmat qiladi. Ichki resurslardan samarali foydalanish va importga qaramlikni pasaytirish mamlakatlarning tashqi iqtisodiy ta’sirlarga nisbatan barqarorligini kuchaytiradi.

Shu jumladan, mamlakatimizda ham import hajmini kamaytirish va mahalliy ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Import tovarlari uchun bojxona bojlari hamda ayrim turdagi tovarlarga nisbatan aksiz solig‘ining qo‘llanilishi tashqi savdoni tartibga solishning muhim iqtisodiy vositalaridan biri hisoblanadi. Mazkur to‘lovlarning miqdori va undirilish tartibi O‘zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi hamda O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi bilan belgilanadi. Shu bilan birga, O‘zbekistonning dengiz yo‘llariga bevosita chiqish imkoniyatiga ega emasligi import xarajatlarining oshishiga ta’sir etuvchi omillardan biridir. Natijada logistika xarajatlarining yuqorilashi va ayrim hollarda ta’minot zanjirlarida uzilishlar yuzaga kelishi ehtimoli ortadi.

So‘nggi yillarda tashqi savdo balansida salbiy saldo kuzatilayotgani import hajmining eksport hajmidan yuqoriligini ko‘rsatadi. Shu bois mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish, import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish hamda eksport salohiyatini oshirish milliy iqtisodiyot barqarorligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu maqolaning maqsadi — importning iqtisodiyotga ta’sirini o‘rgangan holda, O‘zbekiston sharoitida import o‘rnini bosishning iqtisodiy ahamiyatini ochib berishdan iborat. Tadqiqot davomida O‘zbekistonning import hajmi va tarkibi tahlil qilinadi, mahalliylashtirish jarayonida yuzaga kelayotgan to‘siqlarni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqiladi. Shuningdek, importning YaIMga ta’siri ko‘rib chiqiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

E. Xeksher va B. Olin tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro savdo modeli orqali import amaliyotlarining afzalliklari va kamchiliklari tushuntirib berilgan. Unga ko‘ra, ba’zi mamlakatlar o‘zlarida ortiqcha bo‘lgan resurslardan tayyorlangan mahsulotlarni eksport qiladilar va ishlab chiqarish uchun kamyob bo‘lgan resurslarni import qiladilar. Shu bilan birga, import tovarlar mamlakatga chet eldan inflyatsiyaning kirib kelishiga sabab bo‘lishi ham grafiklar asosida vizual tarzda tushuntirib berilgan.

J.J. Jalolov, I.A. Ahmedov, I.S. Hotamov tomonidan yaratilgan darslikda tashqi iqtisodiy aloqalar keng yoritib berilgan. Darslikda yurtimizning eksport-import salohiyati, tarkibi va bu sohada amalga oshirgan islohotlari yoritib o‘tilgan. Ijobiy saldoga erishish uchun mamlakatda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar jahon bozoridagi raqobatga javob bera olishi kerak. Import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar assortimenti va hajmini oshirish muhim vazifalardan biri sifatida ko‘rsatib o‘tilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mahalliy ishlab chiqarishni rag‘batlantirish iqtisodiyotga bir qancha ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Yangi ish o‘rinlari yaratiladi, xomashyolardan tayyor, qo‘shimcha qiymat qo‘shilgan yangi mahsulotlar ishlab chiqariladi, xorijiy valyuta zaxirasi yaratiladi. Shu jumladan, aholi iste’molidan ortgan qismi chet elga eksportga yo‘naltirilishi mumkin. Import tovarlar yuqori logistika xarajatlarini talab qiladi, bu esa import tovarlarning narxi ichki bozorda mahalliy tovarlarga qaraganda qimmatroq bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Tadqiqot davomida O‘zbekiston Respublikasi tashqi savdo, eksport va import hajmlari, tarkibi statistik tahlillar yordamida o‘rganib chiqildi, ekonometrik modellar yordamida yalpi ichki mahsulot hamda import o‘rtasidagi bog‘liqlik tahlil qilinadi. Jahon tajribasiga nazar solish orqali import hajmini kamaytirish yo‘llari ko‘rib chiqiladi.

Tahlil va kuzatuvlar asosida tashqi savdo hajmini oshirish, import tovarlar hajmini kamaytirish, import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, ustuvor yo‘nalishlarni aniqlash hamda mavjud zaif tomonlarni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yil yanvar-dekabr oylarida tashqi savdo aylanmasi 81,2 milliard AQSh dollariga yetdi. Eksport hajmi 33 812,3 million AQSh dollarini, import hajmi esa 47 354,5 million AQSh dollarini tashkil etdi.

1-jadval. O‘zbekiston Respublikasining 2016-2025-yillardagi tashqi savdo aylanmasi hajmi[1]

Yillar	Tashqi savdo aylanmasi hajmi, mln.AQSH dollari	Eksport hajmi, mln. AQSH dollari	Import hajmi, mln. AQSH dollari	Tashq savdo balansi saldosi, mln.AQSH dollari
2016	24232,2	12094,6	12137,6	-43
2017	26566,1	12553,7	14012,4	-1458,7
2018	33430	13990,7	19439,3	-5448,6
2019	41751	17458,6	24292,4	-6833,8
2020	36256,1	15102,3	21153,8	-6051,5
2021	42170,5	16662,8	25507,7	-8844,9
2022	50500,4	19732,6	30767,8	-11035,2
2023	63528,6	24869,5	38659,1	-13789,6
2024	67238,4	27270,1	39968,3	-12698,2
2025	81166,8	33812,3	47354,5	-13542,2

Yuqoridagi jadvalda 2016–2025-yillardagi tashqi savdo aylanmasi, eksport va import hamda tashqi savdo aylanmasi saldosi keltirilgan. Kuzatish uchun olingan davr mobaynida tashqi savdo aylanmasi manfiy saldoga ega bo‘lgan, ya’ni import tovarlar hajmi eksportdan ko‘proq ekanligini anglatadi. Bu esa import tovarlarga bo‘lgan talab mamlakat eksport salohiyatiga qaraganda tezroq o‘sayotganligidan dalolat beradi.

Mamlakat iqtisodiy salohiyatini ko‘rsatuvchi asosiy ko‘rsatkichlardan biri yalpi ichki mahsulot hisoblanadi. YaIMni xarajatlar usuli bo‘yicha hisoblashda iste’molchilarning yakuniy iste’mol xarajatlari, davlat xarajatlari, investitsiya xarajatlari va sof eksport ko‘rsatkichi, ya’ni tashqi savdo balansi saldosining yig‘indisi orqali topiladi. Endi YaIM va import o‘rtasidagi bog‘liqlikni korrelyatsiya yordamida aniqlaymiz.

2-jadval. O‘zbekiston Respublikasi YaIM tarkibi dinamikasi(mlrd.so‘m)

Yillar	Yalpi ichki mahsulot hajmi	Yakuniy iste’mol xarajatlari	Davlat xarajatlari	Investitsiya hajmi	Eksport hajmi	Import hajmi
2016	290213,4	207047	36117	69059,8	31501,3	43062,2
2017	369612,8	247326	40270	97059,5	65870,2	85834,8
2018	494814,8	314613	61611	165743	114514,9	189277,2
2019	620083,2	383788	90825	232848	150747	235567,2
2020	705076,5	426097	102604	251138	146403,3	228042,2
2021	861170,8	536482	131067	309286	174834,9	296637
2022	1041877,9	677754	164230	347124	231640,3	393990,3
2023	1261806	799649	192782	416763	294193	502034,3
2024	1535431,7	991333	227184	599544	331146,6	552180,2
2025	1849650	1E+06	294236	615526	407588,8	654120,2

Endi jadval ma’lumotlari asosda YaIM va import o‘rtasidagi korrelyatsiyani quyidagi formula asosida hisoblaymiz:

$$r = \frac{\sum n_{xy} \cdot x \cdot y - n \cdot \bar{x} \cdot \bar{y}}{n \cdot \sigma_x \cdot \sigma_y}$$

Formula bo‘yicha hisoblangan korrelyatsiya koeffitsiyenti 0.98 ga teng va bu import hajmi va YaIM o‘rtasida kuchli bog‘liqlik borligini ko‘rsatadi. Yuqoridagi jadval asosida ekonometrik model tuzsak, u $Y=20318,03+0.5x_1+3.3x_2+0.15x_3+2.99x_4-1.51x_5$ ko‘rinishga ega bo‘ladi. Bu esa x_5 omil, ya’ni import YaIM miqdoriga teskari ta’sir

1 O‘zbekiston Respublikasi milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari. https://stat.uz/uz/

ko‘rsatishini anglatadi. Buni Yalpi ichki mahsulotning xarajatlar bo‘yicha topish formulasida ham ko‘rishimiz mumkin: YaIM=C+I+G+(X-M).

Jahon tajribalariga nazar tashlaydigan bo‘lsak, Janubiy Koreya eksportga yo‘naltirilgan mahalliylashtirish strategiyasini qo‘llash orqali mamlakat eksport salohiyatini oshirish bilan birga, importga qaramlik darajasini kamaytirishga erishgan. Bunda importga boj tariflari joriy etilgan va ishlab chiqarish hajmi oshishi hisobiga import tovarlarga bo‘lgan talab ham kamaygan.

2-jadval. O‘zbekiston Respublikasi 2016-2024-yillardagi import tarkibi[2]

Mahsulot turi	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	4519	4517	7669	9569	7954	8260	9696	14935	13549
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	1775	2326	3461	4148	3581	4707	5747	6323	6055
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar	1717	1696	2126	2687	2881	3734	4372	4865	4688
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar	589	742,1	880	940,6	1107	1557	1795	2634	3953
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	1145	1049	1327	1609	1851	2510	3393	3496	3696
Turli xil tayyor buyumlar	455	552,4	774	1506	1309	1306	1331	1490	1483
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari	264	315,7	804	1027	864	1155	1284	1125	1196
Hayvonlar va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar	225	160,1	212	279,6	297	411	401	425,4	373,2
Ichimliklar va tamaki	45,2	35,2	24	44	49,3	89,9	139	191,6	251,3
Boshqa tovarlar	0	0,1	20,5	57,4	37,7	11,6	62,9	90,9	46,4

Yuqoridagi jadvalda O‘zbekiston Respublikasining import mahsulotlari tarkibi keltirilgan. Asosan, mashina va transport asbob-uskunalari, sanoat tovarlari va kimyoviy vositalar import tarkibida salmoqli o‘rin egallaydi. Bu sohalarda importni kamaytirish uchun mamlakatimiz sanoatini rivojlantirish lozim. Import tarkibida mashina va transport asbob-uskunalari, sanoat tovarlari hamda kimyoviy vositalar salmoqli o‘rin egallaydi. Bu esa mazkur yo‘nalishlarda mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish, sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish va import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish zarurligini ko‘rsatadi. Xususan, mahalliy xomashyo bazasidan samarali foydalanish, yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish, sanoat kooperatsiyasini kuchaytirish va texnologik yangilanish jarayonlarini jadallashtirish importga qaramlikni kamaytirishning muhim omillari hisoblanadi.

Shuningdek, tog‘-kon, mashinasozlik, kimyo sanoati va yengil sanoat kabi tarmoqlarda mahalliylashtirish darajasini oshirish ichki bozor ehtiyojlarini qondirish bilan birga, eksport salohiyatini kengaytirishga ham xizmat qiladi. Shu bois import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirish, korxonalarni zamonaviy texnologiyalar bilan ta’minlash hamda mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun qulay iqtisodiy sharoit yaratish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Mahalliylashtirish siyosati doirasida ilgari qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar ham import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirishda muhim ahamiyat kasb etgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 26-dekabrdagi PQ-2698-son “2017–2019-yillarda tayyor mahsulot turlari, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirishning istiqbolli loyihalarini amalga oshirishni davom ettirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida import o‘rnini bosadigan, eksportga yo‘naltirilgan va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratilgan loyihalar belgilangan [4].

Mazkur qarorda mahalliylashtirish loyihalariga kiritilgan korxonalar uchun bir qator imtiyozlar nazarda tutilgan. Xususan, respublikada ishlab chiqarilmaydigan texnologik uskunalar, ularning ehtiyot qismlari va komponentlarini olib kirishda bojxona to‘lovlaridan ozod qilish, mahalliylashtirish loyihalari bo‘yicha ishlab chiqarilgan mahsulotlar qismida ayrim soliq imtiyozlarini qo‘llash, shuningdek, mahalliylashtirilgan mahsulot ishlab chiqarishda foydalanilayotgan asosiy ishlab chiqarish fondlari bo‘yicha mol-mulk solig‘idan ozod qilish kabi choralar ko‘zda tutilgan.

2 O‘zbekiston Respublikasi milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari. https://stat.uz/uz/

Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston neft va yoqilg‘i import qiluvchi davlat sifatida Yaqin Sharqdagi geosiyosiy keskinliklar natijasida yuzaga kelayotgan energiya narxlari shoklariga sezgir hisoblanadi. Bunday holat 2026-yilda YaIM o‘sish sur’atlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi, joriy hisob defitsitini kengaytirishi hamda inflyatsion bosimni oshirishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘tkazilgan tadqiqot va tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mamlakat iqtisodiyotining barqarorligini ta’minlash uchun import tovarlari hajmini qisqartirish va mahalliy sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish muhim hisoblanadi. Ichki bozor uchun xorijiy tovarlar o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish nafaqat tashqi savdo balansi defitsitini kamaytiradi, balki yangi ish o‘rinlari yaratish va ichki resurslardan samarali foydalanish imkonini ham beradi.

Import tovarlarning haddan tashqari cheklanishi ham ichki bozorda ba’zi mahsulotlar narxining sun’iy ravishda oshishiga olib kelishi mumkin. Davlat asosiy e’tiborini mahalliy ishlab chiqaruvchilarni rag‘batlantirish, ishlab chiqarishni o‘zgartirish va mahalliy tovarlarni xalqaro standartlarga javob beradigan qilishga qaratishi lozim.

Maqolada ko‘rilgan muammolarni hal qilish va mahalliylashtirish jarayonini jadallashtirish maqsadida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Innovatsion texnologiyalarni joriy qilish uchun yangi texnologiyalar importiga boj to‘lovlarini kamaytirish lozim. Bu tayyor mahsulot importini kamaytirib, ishlab chiqarish vositalarining rivojlanishiga olib keladi.
2. Mamlakatdagi xomashyo resurslaridan tayyor mahsulot olish uchun zanjirli klaster tizimini joriy qilish lozim. Bu chora-tadbirlar pirovard tovarlar importini sezilarli kamaytiradi.
3. Import o‘rnini bosuvchi yuqori texnologik mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalarga past foizli, uzoq muddatli imtiyozli kreditlar ajratish hamda soliq yengilliklari yaratish mahalliy ishlab chiqaruvchilarni yanada rag‘batlantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Krugman P. R., Obstfeld M., Melitz M. J. International Economics: Theory and Policy. 10th ed. — Boston: Pearson, 2014.
2. Jalolov J. J., Ahmedov I. A., Hotamov I. S. Tashqi iqtisodiy faoliyat asoslari. O‘quv qo‘llanma. — Toshkent: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2005. — 168 b.
3. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Tashqi iqtisodiy faoliyat bo‘yicha rasmiy statistik ma’lumotlar. https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/merchandise-trade-2
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 26-dekabrdagi PQ-2698-son “2017–2019-yillarda tayyor mahsulot turlari, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirishning istiqbolli loyihalarini amalga oshirishni davom ettirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. https://lex.uz/docs/-3122943
5. O‘zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi. https://lex.uz/docs/-2876354
6. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. https://lex.uz/docs/-4674902
7. World Bank. Uzbekistan Overview: Economy and Outlook. The World Bank Group. https://www.worldbank.org/ext/en/country/uzbekistan#tab-economy



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o‘g‘li

2-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to‘plami

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz